

## BALAND POSHNALILAR VA PAST POSHNALILAR

*Sarvinoz Islamova*

*Shahrisabz Temurbeklar maktabi psixologи*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar va ularning amaldagi nastijasi va shuningdek ta'lif sohasida yo'l qo'yilayotgan ayrim kamchiliklar tahlil etiladi.

**Kalit so'zlar:** Mega raqobat, Temurbeklar maktabi, ijtimoiy tabaqa, ta'lif bozori

Bugungi kunda ta'lif sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar albatta tahsinga sazovor. Ta'lif inson hayotida xuddiki navigator va kompass vazifalarini bajaradi. Negaki, yuqorida qayd etilgan ikki asbob dengizda kemasozlarga to'gri yo'l ko'rsatsa, ta'lif va bilim olish butun insoniyatni hayoti davomida ezgu amallar, yaxshi ishlarga boshlaydi. Ta'kidlab o'tish joizki, har bir xalq yoxud millat jaholat botqog'iga botib qolmasligi uchun xalq orasida ziyorilar qatlamini shakllantirish zarur. O'tmishtga nazar soladigan bo'lsak, albatta yangiliklardan bexabar, zamonaviy bilimlarni o'zlashtira olmagan xalqlar boshqa davlatlarning qaramiga aylangan va ilm ular uchun yagona najot, "qullik" dan qutulishning birdan bir yo'li bo'lган.

Ulug' Turon zaminida, qadimda Turkiston, Movorounnahr deya atalgan bizning o'l kamizda ham ilm-fan rivojiga o'z hissasini qo'shgan buyuk allomalar juda ham ko'p. Lekin e'tiborlisi, faqatgina IX-XII hamda XIV-XV asrlardagina mamlakatda misli ko'rilmagan o'zgarishlar bo'lган va bu davr tarix zarvaraqlarida "renessans" nomi bilan tilga olinadi. Arablar istilosidan keyin mamlakatda o'zgarishlar bo'lishi va ikki davlat xalqalari o'zaro yangicha turmush boshlashlari dastlabki uyg'onish davrining yutug'i bo'lsa, Amir Temurdek kuchli sarkarda, sohibqironning davlat boshqaruvi tepasiga kelishi albatta ikkinchi renessans omili sifatida ko'rildi.

Bugun "Yangi O'zbekiston-Yangicha Dunyoqarash" shiori ostida yurtboshimiz tomonida nafaqat ta'lif, balki ijtimoiy sohaga oid chora-tadbirlar olib borilmoqda. Mana shunday islohotlar misolida "Temurbeklar maktabi" ni ko'rishimiz mumkin.

Dastlab, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilda qabul qilgan "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" farmoniga asosan Respublikadagi barcha harbiy litseylarga Amir Temurga atab „Temurbeklar maktabi“ deb nom berilgan.<sup>1</sup> Ushbu ta'lif dargohida o'z sohasining yetuk namoyondalari, malakali kadrlar dars berishmoqda. Albatta, o'quvchilarga ta'lif olish uchun yaratilgan shart-sharoitlar ham ko'zni quvontiradi. Chunki ushbu maktabning nafaqat

<sup>1</sup> <https://www.milliyyvardiya.uz/oz/menu/dlja-postupajuschih-v-shkoly-temurbeka>

moddiy-texnik bazasi, balki yotoqxona shart-sharoitlari, davlat budgeti hisobidan amalga oshiriladigan oshxona xizmatlari va boshqa ko'pgina qulayliklari ham mavjud. Lekin xalq orasida va ayniqsa OTM larga hujjat topshirgan o'quvchilar orasida noroziliklarga sabab bo'layotgan narsa Temurbeklar maktabi bitiruvchilariga o'qishga kirishda taqdim etilayotgan imtiyozlardir. Shuningdek, oddiy maktab o'quvchilariga qaraganda juda ko'plab imkoniyatlarga ega bo'lisisada o'quvchilar biror marta Xalqaro Fan Olimpiadalarida o'rinn egallashmagan va respublika fan olimpiadalarida ham oliy o'rirlarni egallashlari kamdan kam kuzatiladigan holat. Bunda nafaqat o'quvchilar, balki oddiy maktab bilan solishtirganda ancha yuqori maosh olayotgan o'qituvchilar ham birdek javobgar. Eng asosiy tomoni garchand yuqori oylik maosh olayotgan bo'lsa ham Temurbeklar maktabi o'quvchilari fan olimpiadalarida egallay olishmayapti. Bunga sabab o'qituvchilarning o'z kasbi fidoyisi emasligimi yoxud o'quvchilarning to'qlikka sho'xliklari?!

✓ “Temurbeklar maktabi” bitiruvchilariga O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy va ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda Davlat test markazi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida o'zлari to'plagan ballarning 30 foizi miqdoridagi;

✓ respublikaning boshqa davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirishda esa o'zлari to'plagan ballarning 15 foizi miqdoridagi qo'shimcha ballar ko'rinishida imtiyoz beriladi;

✓ “Temurbeklar maktabi”ni imtiyozli diplom bilan tugatgan bitiruvchilarga, tarkibida “Temurbeklar maktabi” bo'lgan vazirlik va idoralarning tegishliligi bo'yicha oliy harbiy ta'lim muassasalariga test sinovlarisiz, harbiy-kasbiy saralash tadbirlarini muvafaqqiyatli o'tish natijasida kirish huquqi beriladi.

Temurbeklar maktabi o'quvchilari ushbu dargohga qabul etilish uchun ayrim test sinovlarini topshirishadi. Biroq bu maktabdagi o'quvchilardan ustun qo'yilishi, ortiqcha imtiyoz berilishi kerak degani emas. Bundan tashqari agar ularga imtiyoz berilar ekan faqatgina harbiy OTM larga tegishli qilish kerak yoxud davlat granti kvotasidan tashqari qabul belgilash lozim. Chunki oddiy maktablarda ta'lim olayotgan, a'lo baholarga o'qigan o'quvchilar OTM larga kirishda eng maksimal ball to'plagan taqdirda ham davlat grantiga sazovor bo'lish ehtimolligi juda kam. Bu esa ularni o'qishga bo'lgan qiziqishini so'ndirishi mumkin. Aslida “Kuch-adolatda” degan tamoyil asosida tahsil olayotgan bolalarning o'zi mana shunday vaziyatda ko'z yumib turmasdan adolat istab chiqishlari kerak edi. Zero, jamiyatimizda mashhur ingliz ertakshunosi Jonatan Swift aytganidek “baland poshnalilar” va “past poshnanalilar” qatlamni shakllanmasligi kerak.

### **Foydalilanigan adabiyotlar:**

1. <https://www.milliygvardiya.uz/oz/menu/dlja-postupajuschih-v-shkoly-temurbeka>